

ISSN (E): 2181-4570

MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEXANIZMLARINI
RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH
(1-4-sinflar misolida)

Odinaboboyev Fazliddin Bahriiddin o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute tayanch doktoranti,

@mail: odinaboboyevf@gmail.com

telefon: +998 (99) 376-62-56

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy hunarmandchilikga oid bilim, ko’nikma va malakalariga oid qiziqarli vazamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida kasbiy tarbiyani takomillashitirshning samarali shakl va usullarini aniqlashdan borasidagi tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, milliy hunarmandchilik, texnologiya, rivojlanish,mazmun,mohiyat, shakl, metod, vositalar, dars, ,sinfdan tashqari mashg‘ulotlar

*“Kim hunarni desa, u dono bo ‘lur,
nodonlar qudrat deb boylikni bilur”*

Abdurahmon Jomiy

Jahonda ta’lim va madaniyatlarning integrallashuvi, “gibrid madaniyat”, “ommaviy madaniyat”, individualizm hodisasi milliy ta’lim modelini takomillashtirish, o‘quvchi-yoshlarni milliy an’analar ruhida tarbiyalashni dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylantirmoqda. Ushbu muammo yechimi milliy tuyg‘u va g‘urnuni shakllantirishga xizmat qiluvchi xalq hunarmanchiligi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kasbiy tarbiya, ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning progressiv milliy ta’lim-tarbiya, usul va vositalarini, o‘qitishning innovasion texnologiyalarni joriy etish ehtiyoji va zaruratini kuchaytirmoqda.

Jahon ta’lim muassasalarida innovasion yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning kreativ- modulli texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. YUNESKOning “Barcha uchun ilmiy va texnologik savodxonlik” Xalqaro loyihasi doirasida ta’limning global vazifalarini amalga oshirish, texnologik dunyoqarash, texnologik savodxonlik, texnologik

kompetentlikni shakllantirish, innovation yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniy-ma'naviy qadriyatlarni saqlash, xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilik an'analarini qayta tiklash va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida texnologiya o'quv fanini o'qitishda yanada yuqori natijalarga erishish uchun o'quvchilarga xalq hunarmanchiligining zamonaviy shakllari va yo'nalishlarini o'rgatish metodini innovation texnologiyalar asosida takomillashtirish va mazmunan zamonaviylashtirish, ayniqsa, o'qitishning interfaol metodlari va didaktik vositalari, kompyuter grafikasi va pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash borasida keng qamrovli, maqsadli ishlar amalga oshirildi. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning muhim yo'nalishlarini belgilash uchun imkoniyatlar yaratildi. "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi farmonda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib yetishishida, ularda milliy ruh va iftixor hissini uyg'otishda xalq hunarmandchiligi va ustoz-shogirdlik maktablarining ustuvor ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" 1059-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 17-noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5242-son, 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF- 5712-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmonlari, 2019-yil 28-noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4539-son, 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5242-son farmoni. manba:www.lex.uz

Kasb-hunar egallashning muhimligi, hunarmandchilikning turli sohalari va xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Tadqiqot muammozi sohasida vatanimiz olimlaridan A.I.Vorobyev, I.T.Choriyev, Yu.G.Mahmudov, I.I.Karimov, P.T.Magzumov, Z.Ochilov, S.S.Bulatov, N.A.Muslimov, R.M.Sarsenbayeva, D.A.Zohidov, X.J.Xudoyqulov, A.E.Kenjaboyev, R.N.Ashurov, I.B.Kamolov, M.X.Shomirzayev, L.R.Zaripov, B.E.Qodirov, A.A.Abdurashidov, M.Q.Bozorovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan bo'lib, ularning ishlarida o'quvchilarning bilish samaradorligini oshirish, ularning hamkorlikdagi ijodiy faoliyatini tashkil etish muammolari yoritilgan. Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, B.Imanov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida kasbiy tarbiyani takomillashtirshning o'ziga xos jihatlari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlar, didaktik ta'minoti, shuningdek, pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan. Innovasion ta'lif va interfaol ta'lif metodlari o'quvchilarda o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lif muhitini tashkil etish muammolari A.A.Abduqodirov, N.N.Azizzodjayeva, U.Sh.Begimqulov, J.F.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O.Q.Tolipov, B.H.Xodjayevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida asoslangan. MDH mamlakatlarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini muammoli vaziyatlar yordamida tashkil etish, ularda ijodkorlik jarayonini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari P.N.Andrianov, V.A.Gorskiy, V.I.Kachnev, V.G.Razumovskiy, G.Noyner, V.Kalveyt, N.F.Talyzina X.Kleyn, Yu.S.Stolyarov, V.S.Pel, A.V.Yefanov, A.Yu.Okladnikov, T.B.Antipova, O.A.Serenko, G.A. Ball, M.I. Maxmutov, Ye.I. Mashbis, A.I. Uman, T.I. Shamovalar tomonidan batafsil o'r ganilgan. Xorijiy mamlakatlar olimlari G. Spenser, H.Miyakawa, B.Blumlar o'zlarining falsafiy, eksperimental psixologik tadqiqot ishlarida o'quvchilarning bilish, kreativ qobiliyati, ayniqsa, ularni o'quvchilar dars va sinfdan tashqari faoliyatida rivojlantirish, kasbiy tarbiya shakllantirish muhitining ta'sirini ochib berishgan.

Tadqiqotda tahlil qilish, anketa, savol-javob, xorijiy va ilg'or pedagogik tajribalarni o'r ganish va umumlashtirish, suhbat, pedagogik eksperiment, kuzatish, ekspert baholash, test va so'rovnomalar o'tkazish, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik-statistik ishlov berish metodlaridan foydalanildi.

Milliy hunarmandchilik mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish asosida o‘rganish va o‘rgatishda quyidagi holatlarga e’tiborni qaratish lozim:

1. Hozirgi davrda hukum surayotgan texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish ishlarining an’anaviy tuzilmasi asosida yangi zamon kishisini shakllantirish uchun, ushbu sohaning yangi tizimi loyihasi ishlab chiqish.

2. Texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish ishlarining yangi tizimi loyixasida xalq hunarmandchiliginи nazariy, ma’naviy, metodologik, tarixiy poydevor sifatida tanlab olish.

3. Ushbu ta’lim tizimida xalq hunarmandchiliginи o‘rganish va o‘rgatishning didaktik asoslarini yaratish:

a) Ta’lim mazmunini tanlab olish (nimani o‘rgatish);

b) Shakl va uslublarini, vositalarini aniqlash-o‘qituvchi vazifasini belgilash (qanday qilib o‘rgatish?);

v) O‘rganilgan va o‘rgatilgan ta’lim mazmunining o‘zlashtirish darajasini aniqlash (qanday darajada o‘rgatildi?) kabi asosiy tamoyillarga diqqat e’tibor qaratildi.

4. Texnologiya ta’limi va kabsiga yo‘naltirish ishlarining yangi tizimi mazmuni o‘quv-me’yoriy xujjatlar va o‘quv-metodik majmualarda o‘z aksini topishi lozimligi ko‘rsatish.

5. Ushbu ta’lim tizimini amalga oshirishda o‘quv-dars mashg’ulotlari, turli ta’limiy-tarbiyaviy, tashkiliy tadbirlarning o‘rni tashkil etilishi yo‘llari namunalari ishlab chiqish va amalda sinab ko‘rish.

6. Texnologiya ta’limi, kasbga yo‘naltirish ishlari va xalq hunarmandchiliginи amalga oshirishda yetakchilik vazifasini bajaradigan o‘qituvchi-murabbiy-ustozlarni amaliy, kasbiy, pedagogik faoliyatga tayyorlashning yaxlit texnologiyasi namunasi yaratish va uning ba’zi qismlari amalda sinab ko‘rish.

7. Texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish darajasini, mezonlarini belgilash.

8. O‘quvchi va talabalarning texnologiya ta’limi, kasbga yo‘naltirish, xalq hunarmandchiliginи o‘rganishlari jarayonida ularning jinsiy, yosh, individual, ruxiy, aqliy, jismoniy xususiyatlarini hisobga olish .

9. Ushbu ta’lim sohasi, boshqa fanlardan farqli ravishda, alohida o‘quv, moddiy, xom ashyo ta’minotini talab etadi, ushbu ta’minotni maxalliy sharoitlarda ijobiy amalga

oshirish uchun mehnat va ishlab chiqarish amaliyotlari dasturi va metodikalari ishlab chiqish.

10. Xalq hunarmandchiligi risolalari, o‘gitlari, pand-nasixatlari, hunarmandlar sulolalari aqidalari, qoidalari yirik tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, ular bo‘lg‘usi hunarmandning barkamol shaxs fazilatlariga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

11. Texnologiya ta’limi va hunarmandchilik sohalarini umumta’lim maktablarida muntazam o‘rgatib borish, o‘quvchilarga faqatgina ma’naviy, ma’rifiy, odob-axloq, aqliy, jismoniy, ekologik, estetik, ruxiy jihatdangina shakllanishiga yordam beribgina qolmasdan, balki ularning moddiy sharoitlarini, ta’lim muassasasining, oilaning o‘z-o‘zini iqtisodiy ta’minlashlarini shakl yaxshilanishiga ham yordam beradi.

Bugungi kunda mustaqil mamalakatimizda xalqimizning asrlar davomida yaratgan ijodiy mehnati natijasi bo‘lmish amaliy bezak san’atini ko‘z qorachig‘idek asrash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, yoshlar estetik didini o‘stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrov Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashxur olim, shoir va musavvirlarning betakror madaniyat durdonalari, xalq ustalari yaratgan nodir asarlar ruhida yoshlarni tarbiyalash, ustachilik va hunarmandchilik sirlarini ularga me’ros qoldirishga chaqirganlar.

Xalq hunarmandchiligi insonning nisbatan qulayroq va chiroyliroq yashashini ta’minlovchi asosiy faoliyat turlaridan hisoblanib, ongli odam paydo bo‘lishi bilan dunyoga keldi va rivojlandi. Respublikamizda yashaydigan 130 dan ziyod millat va elatlar vakillarining uzoq mehnati o‘tmishini, sharqona tafakkurini, madaniyatini ifodalovchi vosita hisoblangan xalq hunarmandchiliginи tizimli, mukamallashgan, tartibli, doimiy fan sifatida o‘rganish davri yetib keldi. Respublikaning mustaqillikka erishishi, davlat sifatida shakllanish tariximizni, ma’naviyatimizni va milliy merosimiz hisoblangan hunarmandchiligmizni, o‘zimiz uchun va boshqalar uchun, o‘zimiz o‘rganishimizga, talqin qilishimizga imkoniyatlar yaratdi.

Xalq hunarmandchiligining hozirda saqlanib qolgan 150 dan ziyod sohasi bevosita o‘rganish va yoshlarga o‘rgatish obyekti hisoblansa-da, yo‘qolib ketgan, hozirgi davrda nomlari adabiy manbalardagina saqlanib qolgan yana 100 dan ziyod turi esa turli tadqiqotlar, izlanishlar manbai bo‘lishi mumkin. Biz o‘z tadqiqotimizni xalq

hunarmandchiligining mazmuni, tarixi, tuzilishi, xususiyatlari, bajarilish texnologiyasini aniq bir umumta'lim o'quv fani predmeti hisoblangan texnologiya ta'limi asosida amaliyotga qo'llanilishining asoslarini ishlab chiqishga qaratdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Norbutaevna, N. D., & Kizi, M. R. S. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM FOR FORMING SPIRITUAL COMPETENCE OF STUDENTS IN MODERN CONDITIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 754-760.
2. Donaeva, N. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING SPIRITUAL MATURITY IN STUDENTS IN INFORMATION ENVIRONMENT. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 64-72.
3. Donayeva, N. N., & Normurodova, F. A. (2021). O'QUVCHILARDA MANAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 214-216.
4. Donayeva, N. N. T. (2020). ZAMONAVIY AXBOROT MUHITIDA O'QUVCHI YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI YUKSALTIRISH. *Студенческий вестник*, (22-8), 65-66.
5. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Однабобоев Фазлидин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Научно-практический журнал «Энigma» Выпуск № 32 (Апрель 2021.)*, 93.
6. Baxriddin o'g'li, F. O., Abdunabihevich, F. A., & Norbo'Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 577-580.
7. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 257-262.
8. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboboev, F. B. (2022). Pedagogical importance of using module educational Technologies in the system of continuous

education on the basis of modern approaches. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 173-180.

9. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.

10. Абдуразақов, Ф. (2022, October). ЎҚУВЧИЛАРГА АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШДА НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *E Conference Zone* (pp. 110-115).

11. Абдуразақов, Ф. (2022). ЎҚУВ МАШІУЛОТЛАРИДА УҚУВЧИЛАРНИНГ НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ. *Conferencea*, 78-84.

12. Чарыев, И., & Абдураззоков, Ф. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Энigma*, (32), 86-93.

13. Abdurazakov, F. (2022). SPEAKING SKILLS FORMATION MECHANISMS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 91-100.

14. Xudayqulov, X., & Abdurazaqov, F. (2022). ЁШЛАР ОРАСИДА НУТҚ МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B7), 815-821.

15. Абдуразақов, Ф. А. (2023). ОҒЗАКИ ВА ЁЗМА НУТҚҚА ҚҮЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР. *Journal of Universal Science Research*, 1(1), 36-42.

16. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Абдураззоков Фазлидин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Научно-практический журнал «Энigma» Выпуск № 32 (Апрель 2021)*, 86.

17. Абдуразаков, Ф. (2022). У^ УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У^ УВЧИЛАРНИНГ НОТЩЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ.

18. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabihevich. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG

ISSN (E): 2181-4570

NUTQI. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 16–23. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396>

19. Baxriddin o‘g‘li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo‘Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 577-580.
20. Абдуразаков, Ф. (2022). О ‘кувчиларга ахлоқија-естетик тарбија беришда нотиqliк маданийатини шакллантириш меканизмларини таомилласхтирish. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 16-22.
21. ABDUNAYEVICH, F. тикланишдан-миллий юксалиш” деган дастурний ғоя ёшларни Она юртга са-доқат рухида тарбиялаш, уларда ташаббускорлик, фидойилик, ахлоқий фази-латларни шакллантириш-ўта шарафли вазифа эканлигини таъкидлаган1.